

YODGOROVA Soliha Obidjon qizi

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

Ilmiy rahbar: XAKIMOVA Nigora Alisherovna

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish
ICESCO kafedrasi dotsenti*

ISLOM HUQUQIDA OHOD XABAR TUSHUNCHASI

THE CONCEPT OF KHABAR AHAD IN ISLAMIC LAW

ПОНЯТИЕ «ХАБАР АЛЬ-ВАХИД» В ИСЛАМСКОМ ПРАВЕ

Annotatsiya: Maqolada ohod xabar tushunchasining lug'aviy va istilohiy ma'nolari, uning usul al-fiqhdagi nazariy asoslari hamda hanafiy mazhabida hujjat sifatida qo'llanish doiralari tahlil qilinadi. Imom Abu Hanifa, Dabusi, Pazdaviy, Sarahsiy, Abdulaziz Buxoriy va boshqa hanafiy usulchilarining qarashlari qiyosiy usulda yoritiladi. Shuningdek, xabar al-vohidning ibodat, muomalat va jazolarga oid hukmlarda dalil bo'lishi masalasidagi ixtiloflar tizimli tarzda ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari islom huquqi metodologiyasida ohod xabar tushunchasining hujjatlik mezonlarini anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xabar al-vohid, usul al-fiqh, xabar, hanafiy mazhabi, had jazolari, inson huquqlari.

Abstract: The article analyzes the lexical and technical meanings of the concept of khabar al-wahid, its theoretical foundations in usul al-fiqh, and the scope of its application as a legal proof within the Hanafi school. The views of Abu Hanifa, al-Dabusi, al-Pazdawi, al-Sarakhsi, Abd al-Aziz al-Bukhari, and other Hanafi jurists are examined through a comparative methodological approach. Furthermore, the study systematically discusses scholarly disagreements concerning the evidentiary authority of khabar al-wahid in matters of worship, transactions, and criminal punishments. The findings of the research contribute to a clearer understanding of the criteria for the probative value of solitary reports within Islamic legal methodology.

Keywords: khabar al-wahid, usul al-fiqh, report, Hanafi school, hadd punishments, human rights.

Аннотация: В статье анализируются лексическое и терминологическое значения понятия хабар аль-вахид, его теоретические основы в науке усуль аль-фикх, а также правовые аспекты применения данного типа сообщений в качестве юридического доказательства в ханафитском мазхабе. В сравнительном ключе исследуются взгляды выдающихся факихов и усулистов, таких как Абу Ханифа, ад-Дабуси, ал-Паздави, ас-Сарахси и Абдулазиз аль-Бухари. Системно освещаются разногласия ученых относительно доказательной силы хабар аль-вахид в таких сферах, как ибадат, муамалат и система уголовных наказаний. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию критериев юридической значимости одиночных сообщений в методологии классического исламского права.

Ключевые слова: хабар аль-вахид, усуль аль-фикх, хабар, ханафитский мазхаб, хадд-наказания, права человека.

KIRISH

Islom huquqida xabarlar turli darajalarga bo'linadi va ularning har biri huquqiy hukmlarni asoslashda o'ziga xos o'ringa ega. Shu jihatdan ohod xabar usul al-fiqhda muhim nazariy masalalardan biri hisoblanadi. Ilk usulchi deya ta'riflangan Imom Shofeiyy o'z asarlarida bu tushunchani "xabar al-vohid" atamasi bilan qo'llagan va uning huquqiy ahamiyatini tahlil qilgan. "Ohod" so'zi arab tilida "ahad"ning ko'plik shakli bo'lib, "bitta" degan ma'noni bildiradi. "Xabar al-vohid" degani "bir kishining xabari" deganidir [10:40]. Dastlabki davrlarda bu atama ko'proq lug'aviy ma'noda ishlatilgan bo'lsa, keyingi davrlarda, xususan usul al-fiqhga oid asarlarining tartibga solinishi bilan xabar al-vohid tushunchasida o'zgarish yuz bergan. Bu atama faqat bir kishining bir kishidan rivoyatini ifodalash bilan birga mutavotir darajasiga yetmagan xabarlarni anglatish uchun ham ishlatilgan. Muhaddislar istilohda esa o'zida mutavotir xabarning shartlarini jamlamagan xabar "ohod xabar" deb atalgan. Boshqacha qilib aytganda, mutavotir darjasiga yetmagan xabar ohod xabardir. Imom Abu Hanifa va uning shogirdlari xabar al-vohidni lug'aviy ma'noga muvofiq tarzda, ya'ni "bir kishining bir kishidan rivoyat qilgan xabari" sifatida tushunganlar [8:152].

ASOSIY QISM

Usul ilmi olimi hisoblangan Dabusiyy bevosita xabar al-vohidga ta'rif bermagan. Biroq u xabarlarni "mashhur" va "g'arib" tarzida ikki qismga ajratgan [12:118]. Uning "g'arib" deb atagan qismi aslida xabar al-vohidga muvofiq keladi. Dabusiyy "g'arib" tushunchasini muhaddislar ishlatgan ma'nodan farqli tarzda qo'llagan va uni yana ikki turga bo'lgan. Ulardan biri mashhur bo'lmagan, ammo rad etish darajasiga yetmagan xabarlar bo'lib, uni "maqbul g'arib" deb nomlagan. Ikkinchisi esa, rad etilgan xabarlar bo'lib, u "mustankar g'arib" deb nomlangan. Maqbul g'arib xabarlar salaf va xalaf olimlariga yetib kelganda ular bu xabarlar borasida turli fikr bildirganlar va ba'zilar bu xabarni qabul qilgan bo'lsa, boshqalari rad etgan. Ba'zi qiyoslarda bo'lgani kabi, bunday ixtiloflar sababli ular bir-birini inkor qilmagan va adashgan deb ham ayblamagan.

Shu bois Dabusiyyga ko'ra, maqbul g'arib xabarlar ham qiyosdek ilm al-g'olib ar-rayni, "mustankar g'arib" esa to'g'riligini tekshirishga tayanadigan zonniy bilimni ifodalaydi. U mustankar g'arib xabar bilan amal qilish hukmini mashhur xabarga qiyoslash orqali belgilashga uringan. Chunki Dabusiyy nazarida, mashhur xabar yaqin ilm bo'lgani bois uni tark etgan kishi gunohkor bo'lib qolishidan qo'rqilganidek, mustankar g'arib ham yolg'onga yaqin bo'lgani sababli u bilan amal qilgan kishi ham gunohkor bo'lishidan qo'rqishi ifoda qilinadi [4:207-213].

Pazdaviy va undan keyingi davrlarda xabar al-vohid atamasiga tizimli ta'rif berilganini ko'rish mumkin. Pazdaviydan keyin yashagan olimlarning usul al-fiqhga oid asarlarida, roviylar soni bir, ikki yoki undan ortiq bo'lishidan qat'iy nazar, mutavotir va mashhur darajasiga yetmagan xabarlar xabar al-vohid deb atala boshlangan [6:152].

Ohod xabarga berilgan ta'riflarda roviylar sonining e'tiborga olinmasligi alohida ta'kidlanishining maqsadi, xabar al-vohidni qabul qilish masalasida bir kishini xabarini rad etib, faqat ikki kishining yoki faqat to'rt kishining xabarini qabul qilganlarning qarashlarini rad etishdir. Masalan, Jubboiy e'tiqod masalasi muomalotdan muhimroq ekanini ta'kidlab, muomalotdagi guvohliklarda ikki kishi shart qilinganidek, e'tiqod

masalasida berilgan xabarlarda ham son sharti qo'yilishi kerak deb hisoblagan va bir kishining xabarini qabul qilmay, ikki kishining xabarini qabul qilgan. Bundan tashqari, e'tiqod masalalarining ahamiyatiga asoslanib, xabarni qabul qilish uchun shariat guvohlikda e'tibor bergan eng yuqori son to'rt kishini shart qilganlar ham bo'lgan [5:649-650]. Biroq xabar al-vohid ta'rifidagi roviylar soniga e'tibor berilmasligi bilan bu qarashlarning barchasi rad etilgan va mutavotir hamda mashhur darajasiga yetmagan xabarlarning roviylari soni teng deb qaralgan.

Hanafiyy ulamolari hadislarini uch qismga taqsimlaydilar. Ular: hadislar "mutavotir", "mashhur" va "ohod"ga taqsimlanadi, deyдилar [10:41]. Jumhur olimlar tomonidan berilgan ta'riflarida xabar al-vohid mutavotir darajasiga yetmagan xabar deyilsa, hanafiyy usulchilari mutavotir va mashhur darajasiga chiqmagan xabar deb ta'riflashadi.

Xabar al-vohidni tavsif etishda qo'llaniladigan sifatlardan biri xabarning ham shaklan, ham ma'nan shubha tug'dirishi hisoblanadi. Bu holat sunnatning yetib kelish kayfiyati va ittisol darajalarining uchinchisi sifatida ifoda etiladi. Xabar al-vohidning shaklan shubha tug'dirishi deganda, uning Rasululloh (s.a.v.)ga ittisoli qat'iy bo'lmagani nazarda tutiladi. Ya'ni rivoyat isnodining biror joyida shubha bo'lishi mumkin. Ma'nan shubha tashishi esa mashhur xabardan farqli ravishda, xabar al-vohidning ummatning barchasi birdek qabul qilmaganini anglatadi. Xabar al-vohid bilan mashhur xabar o'rtasidagi farq ham aynan shu nuqtada yuzaga chiqadi. Chunki mashhur xabar aslida xabar al-vohid bo'lgani uchun shaklan shubha tug'diradi, biroq ummat tomonidan qabul qilinganligi sababli ma'nan shubha tashimaydi. Xabar al-vohid ayrim olimlar tomonidan qabul qilingan bo'lsa boshqalari tomonidan qabul qilinmagan. Shu sababli, ham shaklga, ham mazmunga ko'ra shubha mavjud. Hanafiyy olimlarning xabar al-vohid ta'rifini "Roviylar soni qancha bo'lishidan qat'iy nazar, mutavotir va mashhur darajasiga yetmagan hamda Rasululloh (s.a.v.)ga ittisoli ham shaklan ham ma'nan shubhali bo'lgan xabar." deb ifodalash mumkin.

Usulga oid asarlarda xabar al-vohid bilan bog'liq muhokamalardan yana biri, uning qaysi masalalarda hujjat bo'lishi va qaysi masalalarda hujjat bo'lmasligidir. Hijriy V asrdan boshlab yozilgan hanafiy usul asarlarida xabar al-vohidning hujjat sifatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan sohalar tizimli tasniflangan. Pazdaviydan keyingi davr olimlarning asarlarida "xabarning hujjat bo'lish o'zni" sarlavhasi ostida muhokama qilingan bu masalada xabar al-vohid atamasi hadislarni ham, boshqa xabarlarni ham ifodalovchi mutlaq shaklda ishlatilgan. Shu bois bu bo'limda zikr qilingan barcha xabar turlari ham hadis sohasi bilan bog'liq emas. Biroq, hanafiylarning xabar tushunchasidagi yaxlitlikni saqlash maqsadida usul asarlarida bu masala sunnat bo'limi doirasida asosiy tamoyillari bilan ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xabar al-vohid bo'lgan hadislarni dalil sifatida qabul qilishda, guvohlikning qabul qilinishi va muomalot masalalaridagi xabar al-vohidlarning qabul qilinishi ham misol sifatida ishlatiladi. Shuning uchun ushbu sohalar haqida ham umumiy ma'lumotga ega bo'lish zarurdir.

Turkiyalik tadqiqotchi Zubeyde Ozben tasniflashiga ko'ra hanafiy mazhabida xabar al-vohidning dalil bo'lish holatiga ko'ra ahkom masalalari besh qismga bo'linadi [12:120]:

1. Hanafiylarga ko'ra, jazolar (uqubat)dan tashqari, ibodatlar kabi Allohning haqqi doirasiga kiruvchi ahkomga oid masalalarda xabar al-vohid hujjat hisoblanadi. Ular, xabar al-vohid bilan amal qilishda roviylar sonini shart qilib qo'ymay, asosan ularning adolat va zabt sifatlariga ega bo'lishi hamda rivoyatning sahih bo'lishini yetarli mezon deb bilganlar[4:177]. Bu yondashuv hanafiy usulining xabar masalasida ehtiyotkor, ammo amaliy jihatdan keng qamrovli ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, xabar al-vohid bir tegishli ibodatni ibtidoan joriy qilishi yoki mavjud ibodatning far'iy jihatini bayon qilishi o'rtasida farq qilinmagan [1:40]. Bu esa hanafiylar nazarida xabar al-vohidning amal talab etishida mazmun emas, balki xabarning ishonchlilik darajasi hal qiluvchi omil ekanini anglatadi.

2. Alloh haqqiga oid bo'lishi qaramay, jazolar bilan bog'liq hukmlarda xabar al-vohidning qabul qilinishi masalasida ixtilof mavjud. Bu masalada "xabar" atamasining qo'llanishi

sababli, mazkur doirada mutloq ma'nodagi xabar bilan hadis tushunchalarining bir-biri bilan aralashtirib yuborilgani kuzatiladi. Holbuki, had jazolarining xabar al-vohid orqali sobit bo'lishi masalasi muayyan jinoyatlarning qozilik huzurida isbotlanishi bilan bog'liq emas, balki had sifatidagi jazo hukmlarini o'z ichiga olgan xabar-al-vohidlarning shar'iy manba bo'la olishi masalasini anglatadi. Shu sababli, hadlarning sobit bo'lishi bilan bog'liq munozaralar nuqtayi nazaridan xabar al-vohid atamasini mutlaq ma'noda emas, balki hadis ma'nosida tushunish zarur bo'ladi [11:574-575]. Chunki bu borada keltirilgan izoh va dalillarda misol sifatida qo'llanilgan rivoyatlar ham aynan hadislar ekanini ko'rsatadi. Bu esa hanafiy usulining adolat, ehtiyot va huquqiy kafolatlarni ustuvor qo'ygan metodologiyasini yaqqol namoyon etadi.

Jumhur ulamolar hamda Abu Yusuf va Jassos kabi hanafiy vakillar bu turdagi rivoyatlar bilan istidlol qilishni joiz deb bilgan bo'lsalar, Karxiy, Sarahsiy va Pazdaviy kabi usulchilar ehtiyotkor yondashuvni tanlab, hadlarga oid hukmlarda ularni hujjat sifatida qabul qilmaganlar. Dabusiyy esa Alloh haqqi doirasidagi hukmlar ichida hadlarga oid bo'lganlarini alohida baholamasdan, umumiy tarzda bu masaladagi xabar al-vohidlarning hujjat ekanini ta'kidlash bilan kifoyalangan [4:177]. Abdulaziz Buxoriy va Kokiyy ham qabul qilish fikrini qo'llab-quvvatlaganlar [1:42-43, 5:728]. Garchi Abdulaziz Buxoriy "As'hobimizning ko'pchiligi Abu Yusuf va Jassos bilan bir fikrdadir", degan bo'lsa-da, hanafiy usulchilarining ko'pchiligi xabar al-vohidning hadlar masalasida dalil sifatida ishlatilishi joiz emas, degan qarashni qabul qilganlari ko'rinadi. Bu ixtilofning asosida had jazolarining qaytarib bo'lmas va og'ir huquqiy oqibatlarga ega ekanligi yotadi. Shu sababli ayrim hanafiy usulchilari jazolarni belgilashda dalilning qat'iylik darajasiga yuqori talab qo'yganlar. Abdulaziz Buxoriy va Kokiyyning bu masaladagi pozitsiyasini ularning yashagan davrida fiqhiy maktablar o'rtasidagi ilmiy mulqot va o'zaro yaqinlashuv kuchaygani bilan izohlash mumkin. Bu holat hanafiy usulining vaqt o'tishi bilan boshqa mazhablar metodologiyasi bilan muayyan nuqtalarda yaqinlashganini ko'rsatadi.

Had jazolariga oid xabar al-vohidlarning ham boshqa amaliy masalalardagi kabi hujjat ekanini qabul qilgan olimlar bu borada xabar al-vohidni mahkamada qo'llaniladigan nassning dalolati bilan qiyoslaganlar [12:122]. Bunga ko'ra, guvohlik kabi mahkamada qo'llaniladigan nassning dalolatida ham xato bo'lish ehtimoli mavjud bo'lishiga qaramay, ular had jazolari masalasida dalil sifatida qabul qilinadi. Xuddi shuningdek, shubha ehtimolini o'z ichiga olgan bo'lsa-da, xabar al-vohidlar ham had jazolari borasida dalil sifatida qo'llanishi lozim deb hisoblaydilar. Bu fikrga qarshi bo'lganlar esa Rasulullohning (s.a.v.) "had jazolarini shubhali holatlarda tark eting" [2:39] degan amriga asoslanib, hadlar qiyos yo'li bilan sobit bo'lmaganidek, xato va yolg'on ehtimoli mavjud bo'lgan xabar al-vohid bilan ham sobit bo'la olmasligini ta'kidlaganlar. Ularning nazarida, xabar al-vohiddan farqli jihatlari bo'lgan guvohlik esa tegishli oyatlar sababli hadlar masalasida dalil sifatida qabul qilingan va bu borada ijmo mavjud.

Had jazolari masalasida xabar al-vohidni qabul qilmaganlarning keltirgan dalillaridan biri Abu Hanifaning qiyos va xabar al-vohid asosida livota jinoyatiga had jazosi qo'llamaganidir [6:181, 3:334]. Bu iddaolarga javob bergan Abdulaziz Buxoriy had jazolari masalasida qiyos va xabar al-vohidni bir xil darajada baholashni tanqid qilgan. U jazolar aql va ray bilan aniqlanadigan soha bo'lmagani uchun qiyosning bu borada dalil sifatida qabul qilinmasligi tabiiy holat ekani, biroq xabar al-vohid shariat sohibi bo'lgan Payg'ambar (s.a.v.)ning so'zi bo'lgani sababli hukmlarni sobit qilish vakolatiga ega deb hisoblagan..

Abdulaziz Buxoriyning ta'kidlashicha, Abu Hanifa ba'zi rivoyatlarni qabul qilmay, livota masalasida xabar al-vohid bilan amal qilmagani uning had jazolariga mutlaqo qarshi bo'lgani uchun emas, balki rivoyatlarning sahihligini aniqlashda qo'llagan qat'iy mezon bilan bog'liqdir. Abu Hanifaning mazkur rivoyatlar bilan amal qilmasligining sababi livotaning hukmi borasida sahobalar o'rtasida ixtilof mavjud bo'lishiga qaramay, ular bu hadislar bilan amal qilmaganlari va shu sababli Abu Hanifa ularni sahih deb hisoblamaganidadir. Ya'ni Abu Hanifaning bu rivoyatlarni dalil sifatida qabul qilmasligi ularning

mazmuni sababli emas, balki xabar al-vohidga oid boshqa bir mezoniga mos kelmagani sababli yuz bergan.

3. Majburiyatni talab qiluvchi inson huquqlari bilan bog'liq xabarlarining qabul qilinishi uchun, xabarga oid boshqa shartlar bilan bir qatorda, "shahodat" lafzining ishlatilishi, guvohlarning ma'lum bir soni bo'lishi va ularning guvohlik berish salohiyatiga ega bo'lishi kabi jihatlar ham shart qilib qo'yilgan [4:178]. Hanafiy usulchilari bu qismda Alloh haqqidan farqli ravishda inson huquqlari bilan bog'liq masalalarda ikki kishining shart qilinish sababini ham izohlaganlar. Ularning bayoniga ko'ra, inson huquqlari bilan bog'liq masalalarda ikki guvoh talab qilinishining sababi da'vo va inkor qilayotgan ikki tarafning xabarlari o'zaro mos kelishidir. Bunday holatda ikki tarafdan birining xabarini afzal ko'rish uchun guvohlik yoki qasam bilan qo'llab-quvvatlash zarur bo'ladi. Ahkomga oid masalalarda esa ikki xabarning e'tirozini bartaraf etish uchun emas, balki amal qilish uchun dalilga ehtiyoj seziladi. Shu sababli Alloh haqqi doirasiga kiruvchi hukmlarga oid xabarlarida bir nechta kishining shart qilinmaydi.

4. Majburiylikni talab qilmaydigan inson huquqlari bilan bog'liq masalalarda xabar beruvchida adolat, balog'at va musulmon bo'lish shartlari talab qilinmaydi [4:177], faqatgina mumayyiz bo'lish sharti bilan xabar al-vohid qabul qilinadi. Vakolat, sherikchilik, elchilik va qulga savdo qilish izni berish kabi masalalar majburiylikni talab qilmaydigan inson huquqlariga misol bo'la oladi. Buning dalili shuki, Rasululloh (s.a.v.) taqvodor bo'lsin yoki bo'lmasin, har kimning hadyasini qabul qilgan va mo'min bo'lsin yoki kofir bo'lsin, har kim bilan savdo-sotiq qilgan [9:134]. Ushbu qismning avvalgi qismlardan farqi shundaki, bu masalalarda xabar beruvchilar uchun adolat shartini qo'yish qiyinchilikka sabab bo'ladi. Shu bois mumayyizlik sifatiga ega bo'lgan har qanday kishining xabarini qabul qilish zaruriy ehtiyoj sifatida ko'riladi.

5. Faqat bir jihatdan majburiylikni talab qiluvchi inson huquqlari bilan bog'liq xabarlarida Abu Hanifa nazarida guvohlik shartlarining yarmi, ya'ni son yoki adolat sharti talab qilinadi. Imom Abu Yusuf va Imom Muhammad esa bu masalada

Abu Hanifaga muxolif bo'lib, faqatgina mumayyiz bo'lishni shart qilganlar [4:177-178]. Vakilni ozod qilish yoki shartnomani bekor qilish xabarlarini faqat bir tomonga majburiyat yuklaydigan inson huquqlariga misol bo'la oladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, hanafiy usulida mavzu asosida amalga oshirilgan xabar al-vohid tasnifida faqat dastlabki ikki qism Rasululloh (s.a.v.)dan rivoyat qilingan xabarlarga taalluqli ekanligi anglashiladi. Bu ma'nodagi xabar al-vohidlar mavzu jihatidan baholanganida esa e'tiqod va hadlar masalalari asosiy o'rin tutadi. Hadlar masalasida hanafiy usulchilarining katta qismi jumhur ulamolarga muxolif bo'lib, bu masaladagi xabar al-vohidlarning hujjat emasligini ta'kidlaganlar. Biroq Abdulaziz Buxoriy, Kokiylar bu masalada hanafiy qarashdan farqli ravishda jumhur ulamoga yaqin bir pozitsiyani namoyon qilgani ko'rinadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulaziz Ahmad Buxoriy. Kashf al-asror. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1997. – J. III. – 575 b.
2. Abu Nuaym Isfahoniy. Musnadu Imom Abu Hanifa. // Tahqiq muallifi: Nazarmuhammad Faryobiy. – Riyod: Maktabatu al-kavsar, 1994. – 305 b.
3. Abu Sahl Sarahsiy. Usul as-Sarahsiy. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2005. – 416 b.
4. Abu Zayd Dabusiylar. Taqvim al-adilla fi usuli al-fiqh. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2001. – 472 b.
5. Ahmad Kokiylar. Jome al-asror fi sharh al-manor. // Tahqiq muallifi: Fazlurrohman Abdulgo'fur Afg'oniy. – Makka: Maktaba Nizor Mustafo al-baz, 2005. – 1582 b.
6. Ali ibn Muhammad Pazdaviylar. Kanz al-vusul ila ma'rifati al-usul. – Madina: Dor as-siroj, 2016. – 831 b.
7. Ibn Moja. Sunan Ibn Moja. – Qohira: Dor at-tasil, 2014. – 2302. b.
8. Ismail Hakkı Ünal, İmam Ebû Hanîfe'nin Hadis anlayışı ve hanefi mezhebinin hadis metodu. – Ankara: (nashriyoti ko'rsatilmagan), 1994. – 344.s.
9. Ramazan Özmen. İsa b. Ebân'in hayatı, eserleri ve haberlerin epistemolojik değeri ile ilgili bazı görüşleri. İslam Hukuku Araştırmaları Dergisi, sy. 12. 2008. – S. 134
10. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Mustalahul hadis. – Toshkent: Hilol Nashr, 2019. – 383 b.
11. Talip Türkan. Haber-i vâhidlerin hadd cezaları bakımından kaynak olma değeri. İslâmî Araştırmalar Dergisi, 15/4 . 2002. – S. 574–575.
12. Zübeyde Özben. Mâverâünnehir hanefî usûl eserlerinde sünnet anlayışı (v.-viii. Asırlar), Doktora tezi. Sakarya Üniversitesi, 2018. – 298 s.